(6). A.Oteniyozov, E.Holikov. Concepts of hydro geological objects on the construction of the macro mode of a multistage process.

(7). M.Yakubov, T.A.Xujakulov. Conference from 190–191. "Aral Sea" Materials for international scientific and practical conference from 188-190.

(8). Rozanov N.P. Gidrotexnika inshootlari (rus tilida). M., 1985.

(9). Bakiev M.R., Yangiyev A.A., Qodirov O. Gidrotexnika inshootlari. T., 2002.

(10). Bakiyev M.R., Nosirov B.Sh., Xo'jaqulov R.T. Gidrotexnika inshootlari. Texnologiyalar integratsiyasi 2007, 2, 200–240-betlar.

(11). Rahimboev F.M. Gidrotexnikadan ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'at. T., 1996.

(12). Mirzayev S.Sh. Orol tangligi muammosi va uni bartaraf qilish yo'llari. Ma'ruzalar to'plami. T., TIQXMII, 1994, 54-bet.

Mirboboyeva Dilfuza Baxtiyorovna ("Ipak yo'li" xalqaro Turizm va madaniy meros universiteti dotsenti v.b. (PhD)

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV KOMPETENSIYAGA XIZMAT QILUVCHI GRAMMATIK VOSITALARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biz fransuz va o'zbek tillarida kognitiv kompetensiyani rivojlantiruvchi grammatik vositalarning qiyosiy tahlili amalga oshirdik. Tadqiqot til birliklarining nafaqat leksik va frazeologik, balki grammatik jihatlari orqali shaxsning fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va atrof-muhitni idrok etish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi nuqtai nazaridan olib borilgan. Fransuz tilida zamon, modallik va artikulyatsiya vositalari, o'zbek tilida esa holatlar, fe'l shakllari hamda qo'shimchalar kognitiv jarayonlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. Qiyosiy tahlil ikki til o'rtasidagi o'xshashlik va farqlilik jihatlarni ochib beradi, shuningdek, chet tilini o'qitishda kognitiv yondashuv asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, kognitiv lingvistika va til ta'limi sohalari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv kompetensiya, grammatik vositalar, fransuz tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil, til o'rganish, lingvokognitiv tadqiqot, tilshunoslik.*

Мирбобоева Дилфуза Бахтиёровна (кандидат наук, исполняющая обязанности доцента, Международный университет туризма и культурного наследия «Шелковый путь»)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ГРАММАТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ, СПОСОБСТВУЮЩИХ РАЗВИТИЮ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье проведен сравнительный анализ грамматических средств, способствующих развитию когнитивной компетенции во французском и узбекском языках. Исследование проводилось с учетом того, что языковые единицы служат не только лексическим и фразеологическим, но и грамматическим аспектам для формирования у человека способности мыслить, делать логические выводы и воспринимать окружающую среду. Установлено, что во французском языке в развитии когнитивных процессов важны времена, модальность и артикуляционные средства, а в узбекском – падежи, формы глаголов и суффиксы. Сравнительный анализ выявляет сходства и различия между двумя языками, а также позволяет разработать методические рекомендации, основанные на когнитивном подходе к обучению иностранному языку. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для лингвистики, когнитивной лингвистики и языкового образования.*

Ключевые слова: *когнитивная компетенция, грамматические инструменты, французский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, изучение языка, лингвокогнитивные исследования, лингвистика.*

Mirboboyeva Dilfuza Bakhtiyorovna (PhD, Acting Associate Professor , "Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage)

COMPARATIVE ANALYSIS OF GRAMMATICAL MEANS THAT SUPPORT COGNITIVE COMPETENCE IN FRENCH AND UZBEK

Annotation. *In this article, we have conducted a comparative analysis of grammatical means that develop cognitive competence in French and Uzbek. The study was conducted from the perspective of the fact that language units serve not only lexical and phraseological, but also grammatical aspects, to form a person's ability to think, draw logical conclusions and perceive the environment. It is determined that in French, tense, modality and articulation means, and in Uzbek, cases, verb forms and suffixes are important*

in the development of cognitive processes. Comparative analysis reveals similarities and differences between the two languages, and also allows developing methodological recommendations based on a cognitive approach to teaching a foreign language. The results of the study are of theoretical and practical importance for the fields of linguistics, cognitive linguistics, and language education.

Keywords: *cognitive competence, grammatical tools, French, Uzbek, comparative analysis, language learning, linguocognitive research, linguistics.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida til o‘rganish nafaqat kommunikativ vosita, balki shaxsning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy vositasiga aylangan. Kognitiv kompetensiya shaxsning atrof-muhitni idrok etish, axborotni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish hamda muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, til birliklarini o‘rganishda ularning grammatik jihatlarini hisobga olish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Grammatik vositalar orqali til o‘rganuvchi nafaqat gap tuzishni, balki fikrlarni konseptual tarzda ifodalashni ham o‘rganib boradilar.

Fransuz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, grammatik tuzilish va vositalar orqali fikrni ifodalashda o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Masalan, fransuz tilida zamon, artikulyatsiya va modallik vositalari fikrni aniq hamda mantiqiy ifodalashga xizmat qilsa, o‘zbek tilida holatlar, fe’l shakllari va qo‘shimchalar kognitiv jarayonlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ikki til o‘rtasida grammatik vositalarning kognitiv imkoniyatlarini chog‘ishtirma tahlil qilish ilmiy nuqtayi nazardan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kognitiv kompetensiya va grammatik vositalar mavzusi kognitiv lingvistika hamda til ta’limi doirasida keng tadqiq etilgan. J.Lakoff va M.Johnson konseptual metafora nazariyasi orqali til orqali tafakkur shakllanishini o‘z ilimiy izlanishlarida yortib bergan. R.Langacker grammatik vositalarning kognitiv tuzilmalarga ta’sirini alohida yoritib bergan. Fransuz tilshunosligida P. Charaudeau va J.Dubois zamon, modallik va artikulyatsiya vositalarining tilning kognitiv funksiyasidagi rolini tahlil etgan. O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev va N.Mahmudov fe’l shakllari hamda holatlar orqali tafakkur jarayonini rivojlantirishni o‘rganganlar. Ushbu manbalar qiyosiy tahlil uchun mustahkam nazariy asos hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot fransuz va o‘zbek tillaridagi grammatik vositalarning kognitiv kompetensiyaga ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqotda deskriptiv-tahliliy metod asosiy vosita hisoblanib, grammatik birliklarning semantik va kognitiv xususiyatlari qiyoslab o‘rganildi. Qiyosiy metod yordamida ikki til o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlilik jihatlar aniqlandi. Kontekstual tahlil esa grammatik vositalarning nutqdagi vazifasini ko‘rsatib berdi. Tadqiqot kombinatsiyalangan metodologiya orqali ilmiy asoslangan hamda xolis natijalar olish imkonini ta’minlab beradi.

Tahlil va natija. Ushbu tadqiqot doirasida biz fransuz va o‘zbek tillarida kognitiv kompetensiyani rivojlantiruvchi grammatik vositalar aniq misollar asosida tahlil qildik. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, grammatik birliklar nafaqat gap tuzish vositasi, balki shaxsning fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish hamda muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Fransuz tilida kognitiv kompetensiya ko‘proq zamon, modallik hamda artikulyatsiya vositalari orqali shakllanadi. Masalan, “Il faut que tu viennes” (Sen kelishing shart) jumlasi modallik vositasini qo‘llash orqali shart-sharoitni aniqlash hamda mantiqiy munosabatlarni tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga, zamon formalarining keng qo‘llanilishi (passé composé, imparfait, futur simple) voqelikni vaqt jihatidan idrok etish va tahlil qilishni rivojlantiradi. Bu esa til o‘rganayotgan shaxsda voqealarni mantiqiy ketma-ketlikda tushunish va rejalashtirish qobiliyatini oshiradi.

O‘zbek tilida esa holatlar, fe’l shakllari va qo‘shimchalar kognitiv jarayonlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, “Kelayotgan edim” shakli vaqtni tushunish hamda voqealarni tartib bilan ifodalash imkonini yaradi. Holatlar orqali o‘zbek tilida sub’ekt, obyekt hamda harakat orasidagi munosabatlar aniq ko‘rsatiladi va bu esa fikrlash, sabab-oqibat aloqalarini anglashni osonlashtiradi. Shu tarzda, o‘zbek grammatik vositalari milliy tilning konseptual tuzilishini aks ettiradi hamda kognitiv kompetensiyani mustahkamlaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, fransuz va o‘zbek tillari turli grammatik vositalardan foydalansa-da, kognitiv maqsadlar bir xildir: shaxs tafakkurini rivojlantirish, voqealarni mantiqiy tahlil qilish va xulosalar chiqarish. Fransuz tilida grammatik birliklar ko‘proq abstrakt va konseptual, o‘zbek tilida esa hayotiy tajriba va milliy tafakkurga yaqin shaklda ishlatiladi. Shu bilan birga, ikkala tilda ham grammatik vositalar o‘quvchiga murakkab fikrlarni tushunish, so‘z va jumla tuzilishini tahlil qilish hamda nutqiy vazifalarni samarali bajarishga zamin yaratib beradi.

Xulosa va takliflar. Fransuz va o‘zbek tillarida kognitiv kompetensiyani rivojlantiruvchi grammatik vositalar shaxsning fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish hamda voqealarni tahlil qilish qobiliyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Fransuz tilida zamon, modallik va artikulyatsiya vositalari, o‘zbek tilida esa holatlar, fe’l shakllari hamda qo‘shimchalar asosiy kognitiv vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil ikki til o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashga yordam beradi hamda til o‘qitishda samarali metodlarni ishlab chiqish imkonini yaratib beradi.

Shu asosda biz quyidagi takliflar ishlab chiqdik:

Chet tilini o‘rgatishda fransuz va o‘zbek grammatik vositalarining kognitiv imkoniyatlarini integratsiyalashgan tarzda qo‘llash tavsiya etiladi.

O‘qituvchilar uchun qo‘llanma va metodik tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini baholash tizimini joriy etish lozim.

Til o‘rganish jarayonida qiyosiy tahlil metodini qo‘llash o‘quvchilarda analitik fikrlash va problemalarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ushbu takliflar fransuz hamda o‘zbek tillarida kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi grammatik vositalarni samarali o‘rgatish va til ta’limini yanada mukammallashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik va grammatik xususiyatlari. Toshkent, “Fan”, 2013, 5–28-betlar.

[2]. Mahmudov N. Til va tafakkur: grammatik vositalar orqali kognitiv kompetensiya. Toshkent, “Ma’naviyat”, 201, 52–79-betlar.

[3]. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent, Universitet nashriyoti, 2019, 60–96-betlar.

[4]. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, University of Chicago Press, 2003, 3–32-betlar.

[5]. Langacker R.W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford: Oxford University Press, 2008, 15–48-betlar.

[6]. Charaudeau P. Langage et discours. Paris: Hachette, 2002, 41–67-betlar.

[7]. Dubois J., Giacomo M. Dictionnaire de linguistique. Paris, Larousse, 2001, 112–134-betlar.

Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti “Umumiy va qiyosiy tilshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi; malohatxomidova@gmail.com)

NUTQ STRATEGIYALARI VA TAKTIKALARI SHIFOKOR-BEMOR MULOQOTINING KONSTRUKTIV TOIFALARI SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shifokor–bemor muloqotida nutq strategiyalari va taktikalarining ahamiyati yoritiladi. Kommunikativ strategiya tushunchasining psixolingvistik, kognitiv va pragmali-gvistik talqinlari qisqacha tahlil qilinib, strategiya muloqotning global maqsadlarini belgilovchi omil, taktika esa ushbu maqsadlarni amalga oshiruvchi konkret nutq harakatlari majmui sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *shifokor–bemor muloqoti, kommunikativ strategiya, nutq taktikasi, tibbiy diskurs, dialogik nutq, pragmalingvistika, psixolingvistika, kognitiv yondashuv, nutq harakati, kommunikativ kompetensiya.*

РЕЧЕВЫЕ СТРАТЕГИИ И ТАКТИКИ КАК КОНСТРУКТИВНЫЕ КАТЕГОРИИ ДИАЛОГА МЕЖДУ ВРАЧОМ И ПАЦИЕНТОМ

Аннотация. *В данной статье подчеркивается важность речевых стратегий и тактик в общении врача и пациента. Кратко анализируются психолингвистические, когнитивные и прагматические интерпретации концепции коммуникативной стратегии, при этом стратегия интерпретируется как фактор, определяющий глобальные цели коммуникации, а тактика — как набор конкретных речевых действий, позволяющих достичь этих целей.*

Ключевые слова: *общение врача и пациента, коммуникативная стратегия, речевая тактика, медицинский дискурс, диалогическая речь, прагматика, психолингвистика, когнитивный подход, речевой акт, коммуникативная компетентность.*

SPEECH STRATEGIES AND TACTICS AS CONSTRUCTIVE CATEGORIES OF DOCTOR-PATIENT DIALOGUE

Annotation. *This article highlights the importance of speech strategies and tactics in doctor-patient communication. Psycholinguistic, cognitive, and pragmatic interpretations of the concept of communicative strategy are briefly analyzed, and strategy is interpreted as a factor that determines the*